TIMSS MAZMUNI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH SIFATINI BAHOLASH VA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Buxoro davlat pedagogika institute
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi
1-kurs magistranti ***Sobirova Sabina San'at qizi***

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda har bir o'quvchi uchun zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash uchun ulkan hissa qo'shishga ulgurgan TIMSS xalqaro baholash dasturi haqida barcha kerakli ma'lumotlar va uning foydalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. TIMSS xalqaro baholash dasturi,bilish va qo'llash,matematika va aniq fanlar,ta'lim holati,mulohaza yuritish,ta'lim sistemasi, 21-asr ko'nikmalari,mazmun sohasi, sonlar va amallar.

Kunimizda ta'lim tizimini yanada rivojlantirish asosiy maqsadimizga aylanishga ulgurdi.Prezidentimiz tomonidan ham bir qancha ta'lim tizimini isloh qiluvchi qaror va farmonlar tasdiqlanmoqda.2019-yil 29-aprel PF-5712 farmonda O'zbekistonni 2030-yilgacha 30ta ilg'or mamlakatlar sirasiga kiritish maqsad qilib belgilangan.

TIMSSning o'quvchilar uchun ahamiyati va ularning bilimlarini tekshirish hamda baholash uchun dasturul amal bo'lib xizmat qilishi Prezidentimizning 2018-yil 8-iyundagi "Xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS,PIRLS kabilar)da O'zbekiston Respublikasining ishtirokini tashkil etish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarorida ta'kidlab o'tilgan.

John Ainley TIMSS natijalarning tahlili,o'qitish uslublari va maktab muhiti bilan bog'liqligini ochib beradi.

R. Martin va I. Mullis TIMSSni mamlakatlarning ta'lim tizimlari samaradorligini aniqlovchi xalqaro o'lchov ekanligini ta'kidlaganlar.


Avvalo, TIMSS xalqaro baholash dasturi bizning ta'lim holatimizni aniqlash,ta'lim sistemasini ilg'or davlatlar bilan taqqoslash,natijalar asosida milliy ta'lim tizimini isloh qilish, malakali mutaxassislar yetishib chiqishi va ularda 21-asr ko'nikmalarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotni qo'llash zamirida 4- va 8-sinf o'quvchilarida sonlar va amallar, geometriya va o'lchashlar,ma'lumotlar bilan ishlash ,algebra va funksiyalar,statistika kabi mazmun sohalariga oid chuqur bilim va ko'nikmalar hosil bo'ladi. Ushbu atamalarga oid bir qancha topshiriqlar darsligimizdan ham o'rin olgan:



Ushbu topshiriq 4-sinf I qismida keltirib o'tilgan.Bu topshiriqni bajarish mobaynida o'quvchida hayotiy masalalarni yechish ko'nikmasi yanada rivojlanadi,mulohaza yuritish orqali keng tafakkur qilish qobiliyatlari shakllanadi.[3,19-bet]

Quyida matematika darsligining 4-sinf IV qismida TIMSS mazmunidagi topshiriqlar soni keltirilgan:

simmetriya	7
diagramma	2
jadval	12
O'lchov va geometriya	61
Sonlar va amallar	75
sxema	5



Bu topshiriq 4-sinf IV qismida keltirilgan.O'quvchilar misolni bajarish davomida harflarni to'plab, oxirida so'z hosil qilishadi.Bu oddiy yoki murakkab bo'lgan misolni bajarishdan yaxshiroq, albatta. Misol ham qiziqarli, ham real hodisaga asoslangan. Bolalar ota-onalari bilan sayohat,dam olishga chiqishganda chodir yasash haqidagi bilimga va uni yasay olish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Bu kabi TIMSS topshiriqlari bolalarda tabiiy fan va matematikaga oid bilimlarini oshiradi, mustahkamlaydi va kelajakda osongina qo'llay olish imkonini yaratadi.[4,35-bet]

Shunday ekan, TIMSS xalqaro baholash dasturi hozirgi kunda kundalik hayotimiz

uchun muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, 21-asr ko'nikmalarini shakllantirish, yetuk kadrlar yetishtirishni ta'minlash, O'zbekistonni boshqa reytingi yuqori davlatlar qatoriga qo'shish kabi ulkan maqsadlar turganda.Demak,TIMSS topshiriqlari darsliklarda ko'proq joriy etilsa, o'quvchilarning matematika va tabiiy fanga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi, ijodiy fikrlash ko'nikmasi shakllanadi,o'quvchilarning tasavvur olami kengayadi, yangi g'oyalar kelib chiqadi hamda jamoaviy ishlash ko'nikmalari shakllanadi.Bu esa biz erishishimiz kerak bo'lgan cho'qqi uchun bir poydevordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli farmoni.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712sonli farmoni, 2019-yil 29-aprel.

3.I.V. Repyova "Matematika" darslik 4-sinf I qism. Toshkent 2023.

4.I.V.Repyova "Matematika" darslik 4-sinf IV qism. Toshkent 2023.